
Qo'shtepa tumanida tozalik tadbirlari amalga oshirilmoqda
Qish fasli tumanimizda ham o'zining sovuq kunlari bilan aholiga noqulayliklarni
tug'dirmoqda, ammo shunday fidoyi kasb egalari borki sovuq ob-havoga qaramay atrof-
muhit tozaligini ta'minlashda o'zlarining munosib xissalarini qo'shmoqdalar. Aslida
ularda maqsad bitta! U ham bo'lsa atrof-muhit musaffoligi yo'lida ozodalikni
ta'minlashdir.

Xususan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Qo'shtepa tumani
bo'limi tashabbusi bilan "Fayz", "Loyson" va "Shahartepa" MFYlar hududlarida "Vodiy
maxsus sanitar Trans" MCHJga qarashli Qo'shtepa tumani filiali xodimlari tomonidan
to'planib qolgan chiqindilar va qurigan xazonlardan tozalanib, tozalov ishlari olib borildi.

Hududda to'planib qolgan chiqindilar shu kunning o'zida maxsus texnikalar yordamida
olib ketilib, bartaraf etildi.

2025-01-23 14:54:22